TACTICS AND STRATEGY OF THE CUSTOMS SERVICE IN THE FIGHT AGAINST ECONOMIC VIOLATIONS IN THE IMPORT OF AGRICULTURAL PRODUCTS

Nurmatov Ulugbek Islambekovich
Senior Lecturer, Department of Special Sciences, Faculty of Retraining and Advanced Training, Customs Institute,
https://doi.org/10.5281/zenodo.20487059

Abstract: This article examines the effective organization of customs control over agricultural imports in the context of global economic changes and food security. It analyzes economic violations during the import process (understatement of customs value, incorrect indication of commodity codes, etc.) and their impact on domestic market stability. The study proposes innovative methods, such as an intelligent risk management system (IRMS), artificial intelligence (AI), and post-clearance audit, to improve the operational, tactical, and long-term strategic effectiveness of customs authorities.

Keywords: Customs strategy, customs tactics, agricultural imports, economic violations, risk management, post-clearance audit, food safety.

QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI IMPORTIDA IQTISODIY QONUNBUZARLIKLARGA QARSHI KURASHDA BOJXONA XIZMATI TAKTIKASI VA STRATEGIYASI

Nurmatov Ulug‘bek Islambekovich
Bojxona instituti Qayta tayyorlash va malaka oshirish fakulteti Maxsus fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi,
e-mail:bek.nur2024@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada global iqtisodiy o‘zgarishlar va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash sharoitida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari importi ustidan bojxona nazoratini samarali tashkil etish masalalari tadqiq qilingan. Import jarayonidagi iqtisodiy qonunbuzarliklar (bojxona qiymatini pasaytirish, tovar kodlarini noto‘g‘ri ko‘rsatish va boshqalar) va ularning ichki bozor barqarorligiga ta’siri tahlil etilgan. Tadqiqot doirasida bojxona organlarining operativ-taktik va uzoq muddatli strategik faoliyatini takomillashtirish uchun Intellektual xavfni boshqarish tizimi (RMS), sun’iy intellekt (AI) va post-bojxona auditi kabi innovatsion usullar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: Bojxona strategiyasi, bojxona taktikasi, qishloq xo‘jaligi importi, iqtisodiy qonunbuzarliklar, xavfni boshqarish, post-bojxona auditi, oziq-ovqat xavfsizligi.

ТАКТИКА И СТРАТЕГИЯ ТАМОЖЕННОЙ СЛУЖБЫ В БОРЬБЕ С ЭКОНОМИЧЕСКИМИ НАРУШЕНИЯМИ ПРИ ИМПОРТЕ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ

Нурматов Улуғбек Исламбекович
Старший преподаватель кафедры специальных наук факультета переподготовки и повышения квалификации кадров Таможенного института,
эл. почта: bek.nur2024@mail.ru

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы эффективной организации таможенного контроля импорта сельскохозяйственной продукции в контексте глобальных экономических изменений и обеспечения продовольственной безопасности. Анализируются экономические нарушения в процессе импорта (занижение таможенной стоимости, неправильное указание товарных кодов и т. д.) и их влияние на стабильность внутреннего рынка. В рамках исследования предлагаются инновационные методы, такие как интеллектуальная система управления рисками (СУР), искусственный интеллект (ИИ) и посттаможенный аудит, для повышения оперативно-тактической и долгосрочной стратегической эффективности деятельности таможенных органов.

Ключевые слова: Таможенная стратегия, таможенная тактика, импорт сельскохозяйственной продукции, экономические нарушения, управление рисками, посттаможенный аудит, безопасность пищевых продуктов.

1. KIRISh

1.1. Mavzuning dolzarbligi

Zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlar sharoitida har bir davlatning iqtisodiy xavfsizligi va uning ajralmas qismi bo‘lgan oziq-ovqat xavfsizligi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Global iqlim o‘zgarishi, logistika zanjirlaridagi uzilishlar va geosiyosiy keskinliklar ichki bozorlarni qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari bilan kafolatli ta’minlash mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ham aholini arzon va sifatli qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta’minlash, shu bilan birga ichki ishlab chiqaruvchilarni adolatsiz tashqi raqobatdan himoya qilish strategik ahamiyat kasb etadi.

Biroq, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari importi hajmining ortishi o‘z navbatida ushbu sohadagi iqtisodiy qonunbuzarliklar sonining ko‘payishiga ham zamin yaratmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini import qiluvchi tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchi(TIF)lari tomonidan bojxona to‘lovlarini to‘lashdan qochish, soliq stavkasini kamaytirish maqsadida tovarlarning tovar hujjatida(invoys) narxini sun’iy ravishda pasaytirish, tovarlar nomenklaturasi (TIF TN kodlari)ni soxtalashtirish hamda fitosanitariya talablariga javob bermaydigan mahsulotlarni aylanma yo‘llar orqali olib kirish holatlari tez-tez kuzatilmoqda.

1.2. Muammoning qo‘yilishi va adabiyotlar tahlili

Bojxona nazorati samaradorligini oshirish va iqtisodiy qonunbuzarliklarga qarshi kurash muammolari xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Jahon bojxona tashkiloti(WCO) tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari o‘zining tez buziluvchanligi va fitosanitar xususiyatlari tufayli bojxona chegaralarida eng ko‘p qalbaki qilinadigan tovarlar guruhiga kiradi.

Iqtisodiy adabiyotlarda bojxona nazorati mexanizmlari ikki xil yondashuv ostida tahlil qilinadi[1]:

1. Fiskal yondashuv: Davlat budjetiga tushumlarni maksimal darajaga yetkazish.

2. Himoyalash (Proteksionistik) yondashuv: Ichki bozorni va mahalliy agrosanoat majmuasini qalbaki yoki asossiz ravishda arzonlashtirilgan tovarlar bosimidan asrash.

Amaldagi milliy bojxona tizimida tezkor-taktik choralar asosan chegara o‘tkazish punktlarida tovarlarni bevosita amalda ko‘rikdan o‘tkazishga qaratilgan bo‘lib, bu ko‘p vaqt va resurs talab qiladi, shuningdek, logistika zanjirida tirbandliklarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli, xavf-xatarlarni oldindan prognoz qiluvchi uzoq muddatli strategik modellar hamda chegaradan o‘tgandan keyingi nazorat (post-clearance audit) taktikalarini mukammallashtirish ilmiy jihatdan dolzarb muammo hisoblanadi[2].

2. TADQIQOT USLUBIYOTI

Ushbu tadqiqotni olib borishda tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy baholash, iqtisodiy-statistika tahlili hamda xavflarni modellashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

Ma'lumotlarni to'plash: Bojxona organlarining so'nggi yillardagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari importiga doir statistik hisobotlari, aniqlangan qonunbuzarlik holatlari xarakteri va davlat budjetiga yetkazilgan zarar miqdori o'rganildi.

Tasniflash va guruhlash: Qishloq xo'jaligi tovarlari importidagi qonunbuzarlik turlari xavflilik darajasi va qo'llaniladigan usullariga ko'ra guruhlandi (TIF TN kodini o'zgartirish, qiymatni pasaytirish).

Strategik va taktik tahlil: Amaldagi xavfni boshqarish tizimining (RMS) samaradorligi[3] SWOT-tahlil (Kuchli va ojiz tomonlar, imkoniyatlar va xavflar) metodi orqali baholandi.

Eksperimental modellashtirish: Sun'iy intellekt (AI) va Post-bojxona auditi (PCA) modellarining bojxona to'lovlari undirilishi darajasiga ta'sirini baholash uchun prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi.

3. TADQIQOT NATIJALARI

Olib borilgan statistik va amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi mahsulotlari importida iqtisodiy qonunbuzarliklarning chizmalari tobora murakkablashib bormoqda. Quyidagi 1-jadvalda importyorlar tomonidan eng ko'p qo'llaniladigan qonunbuzarlik usullari va ularning bojxona organlari tomonidan aniqlanish koeffitsiyenti aks ettirilgan[4].

1-jadval:

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari importidagi asosiy qonunbuzarlik turlari va ularning dinamikasi

Qonunbuzarlik turi	Qo'llaniladigan usullar	Aniqlanish darajasi (%)	Budjetga yetkaziladigan zarar	Asosiy tovar guruhlari
Bojxona qiymatini pasaytirish (Undervaluation)	Invoys va hisob-fakturalarni qalbakilashtirish, vositachilar orqali narxni kamaytirish.	65%	Yuqori	Tropik mevalar, o'simlik yog'lari, shakar, go'sht mahsulotlari.
TIF TN kodlarini noto'g'ri deklaratsiyalash	Yuqori boj stavkali tovarlarni stavkasi past yoki nol bo'lgan tovar kodi ostida ko'rsatish.	72%	O'rta	Don mahsulotlari, urug'liklar, maxsus ozuqa qo'shimchalari.
Yashirin import	Nazorat punktlaridan chetlab o'tish yoki hujjatlarsiz yuk transportlarida yashirincha olib kirish.	45%	Juda yuqori	Tirik chorva, tez buziladigan poliz va sabzavot mahsulotlari.
Sertifikatlarni soxtalashtirish	Fitosanitar va gigiyenik xavfsizlik	58%	Yuqori (ijtimoiy xavf)	Meva-sabzavotlar,

	sertifikatlarini soxtalashtirish.			konservalangan mahsulotlar.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bojxona qiymatini pasaytirish eng keng tarqalgan iqtisodiy jinoyat hisoblanadi. Amaldagi "Qizil" yo‘lak tizimlari chegarada jismoniy tekshiruvlar hajmini oshirsa-da, hujjatlardagi yashirin o‘tkazishlarni (masalan, offshor zonalardagi vositachi firmalar orqali haqiqiy narxni yashirish) to‘liq fosh etishga ojizlik qilmoqda.

Shu munosabat bilan, bojxona xizmati tizimi uchun uzoq muddatli strategik islohotlar va operativ-taktik chora-tadbirlar uyg‘unligini ta’minlovchi yangi integratsiyalashgan model ishlab chiqildi. Ushbu model uzoq muddatli tizimli islohotlar hamda tezkor operativ harakatlar muvozanatiga tayanadi[5].

Ushbu natijalardan kelib chiqib, bojxona organlarining harakatlar strategiyasini tubdan o‘zgartirish bo‘yicha prognoz hisob-kitoblari o‘tkazildi. Agar jismoniy ko‘riklar ulushi 30% dan 10% gacha kamaytirilib, asosiy e’tibor post-bojxona auditiga (PCA) qaratilsa, tovarlarni rasmiylashtirish vaqti o‘rtacha 2,5 barobarga qisqarishi, ammo qonunbuzarliklarni aniqlash samaradorligi 18-22% ga ortishi aniqlandi.

4. MUHOKAMA VA TAHLIL

4.1. Amaldagi taktik va strategik yondashuvlarning kamchiliklari mavjud.

Bugungi kunda bojxona organlari duch kelayotgan eng katta muammo — bu savdoni erkinlashtirish va nazorat qat’iyligi o‘rtasidagi muvozanatni topishdir. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari (ayniqsa, yangi uzilgan meva-sabzavotlar, sut va go‘sht mahsulotlari) tez buziluvchan tovarlar toifasiga kirganligi sababli, ularni chegara punktlarida uzoq vaqt ushlab turish importyorlarga ulkan moddiy zarar yetkazadi.

Qonunbuzar importyorlar ushbu omildan foydalanib, bojxona xodimlarini shoshiltirishga va yuklarni chuqur ekspertizadan o‘tkazmasdan chiqarib yuborishga majbur qilish taktikalarini qo‘llaydilar. Amaldagi Xavfni boshqarish tizimi (RMS) ko‘pincha statistik mezonlarga (tovar kelib chiqqan davlat, importyorning ro‘yxatdan o‘tgan muddati va h.k.) tayanadi. Bu esa dinamik ravishda o‘zgarib turuvchi xalqaro bozor narxlari va yangi firbgarlik sxemalarini tezkorlik bilan ilg‘ab olish imkonini bermaydi.

4.2. Strategik yo‘nalishlarni takomillashtirish

Uzoq muddatli strategik istiqbolda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari importidagi iqtisodiy qonunbuzarliklarga qarshi kurash quyidagi yo‘nalishlarda isloh qilinishi lozim:

1. Intellektual xavfni boshqarish tizimini (AI-RMS) joriy etish: Tizimga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali jahon birjalaridagi va eksportyor mamlakatlardagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining joriy narxlarini avtomatlashtirilgan tarzda monitoring qilish zarur. Agar import qilinayotgan pomidor yoki o‘simlik yog‘ining invoys narxi jahon bozoridagi o‘rtacha narxdan 20% dan ortiq farq qilsa, tizim avtomat ravishda "Qizil yo‘lak" ko‘rsatkichini yoqishi kerak.

2. Transchegaraviy elektron ma’lumotlar almashinuvi: O‘zbekiston Respublikasi Bojxona qo‘mitasi va asosiy savdo hamkorlari (Qozog‘iston, Rossiya, Xitoy, Turkiya, Eron) o‘rtasida "Yagona darcha" tizimi doirasida eksport deklaratsiyalarini real vaqt rejimida almashishni yo‘lga qo‘yish. Bu importyorning tovar narxini chegaradan o‘tish paytida o‘zgartirib (kamaytirib) ko‘rsatish imkoniyatini butunlay yo‘q qiladi.

4.3. Taktik mexanizmlarni optimallashtirish

Tezkor-taktik darajada chegaradagi bosimni kamaytirib, nazorat sifatini oshirishning eng samarali usuli — bu Post-bojxona auditi (Post-clearance audit — PCA) hisoblanadi.

• Taktika o‘zgarishi: Tovar chegarada to‘xtatilmasdan, "Yashil yo‘lak" orqali tezkorlik bilan mamlakat ichkarisiga qo‘yib yuboriladi. Ammo importyorning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati, bank

o‘tkazmalari va ichki bozordagi realizatsiya narxlari tovar chiqarib yuborilgandan keyin (3 yil davomida) auditdan o‘tkaziladi.

• Raqamli laboratoriyalar: Chegara punktlarida zamonaviy fitosanitar va ekspertiza laboratoriyalarini tashkil etish, tovarlarning tarkibini (masalan, elita urug‘lar niqobi ostida oddiy don tovarlarini olib kirish holatlarini) tezkor aniqlash taktikasini kuchaytiradi.

5. XULOSA

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari importida iqtisodiy qonunbuzarliklarga qarshi kurash davlatning iqtisodiy xavfsizligi va aholi salomatligini ta’minlashning muhim omilidir. Olib borilgan ilmiy tadqiqot asosasi bojxona xizmati strategiyasi va taktikasi samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi yakuniy xulosalar shakllantirildi:

1. Bojxona nazoratini faqat "chegara o‘tkazish punkti" bilan cheklash amaliyoti eskirgan bo‘lib, u savdo aylanmasiga to‘sqinlik qiladi. Asosiy e’tiborni tovarlar chiqarib yuborilgandan keyingi nazoratga — Post-bojxona auditiga ko‘chirish zarur.

2. Xavfni boshqarish tizimini sun’iy intellekt va "Katta ma’lumotlar" (Big Data) texnologiyalari bilan boyitish, inson omilini kamaytiradi va korrupsion risklarni bartaraf etadi.

3. Xorijiy davlatlar bilan eksport deklaratsiyalarini elektron almashish mexanizmi invoys narxlarini soxtalashtirishga qarshi eng samarali strategik qalqondir.

Ushbu taklif etilgan integratsiyalashgan modelning amaliyotga joriy etilishi davlat budjetiga tushumlarni ko‘paytirish bilan bir qatorda, ichki agrar bozorda halol raqobat muhitini yuzaga keltirimi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. — Toshkent: Adolat, 2019.
2. World Customs Organization (WCO). (2022). Gaining Efficiency through Post-Clearance Audit (PCA) and Risk Management. WCO Research Paper Series.
3. Vanishvili, M., & Katsadze, I. (2021). Financial and Economic Aspects of Customs Security. International Journal of Innovative Technologies in Economy.
4. Bojxona qo‘mitasining tahliliy va statistik ma’lumotnomalari (2024–2025-yy.).
5. Sharipov, A. A. (2023). Bojxona ma’murchiligini raqamlashtirish sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash yo‘nalishlari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy jurnali.